

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Газиев А. Қорақўл қўйларини самарали селекциялашнинг экологик ва генетик асослари. Докт. дисс. (DSc). Самарқанд, 2021, 198 бет.
2. Исаеянц Б. Л. Длина волоса каракульских овец при рождении и её значение в селекции. Автореф. канд. дисс., Самарқанд, 1971, 21 с.
3. Матякубов Р. Длина завитка ягнят при рождении и её влияние на формирование смушковой и шерстной продуктивности чёрных каракульских овец. Автореф. канд. дисс., Ташкент 1999, 22 с.
4. Плохинский Н. А. Руководство по биометрии для зоотехников. Москва, 1969. 256 с.
5. Юсупов С. Ю. ва бошқалар. Қорақўлчиликда наслчилик ишларини юритиш ва қўзиларни баҳолаш (бонитировка қилиш) бўйича қўлланма. Тошкент, 2015. 31 бет.

UO‘K: 636.32/38.082.11.

Ко‘к афғон генوفонди қо‘чқорларидан фойдаланиб оlingан ко‘к ва қора рангли авлодларнинг екстерер ва тана тuzилиш индекc ко‘рсаткичлари

X.N.Imomov-tayanch doktorant

U.X.Aripov-ilmiy rahbar, q.x.f.d., professor

Qorako‘lchilik va cho‘l ekologiyasi ilmiy-tadqiqot instituti

Annotatsiya. *Ushbu maqolada “Bobotog‘ suri xo‘jaligi”ga keltirilgan afg‘on ko‘k qorako‘l qo‘chqorlaridan foydalanish natijasida olingan ko‘k va qora rangli qo‘zilarining yoshi dinamikasida eksterer, indeks hamda tirik vazn ko‘rsatkichlari aniqlangan va xulosalar qilingan.*

Kalit so‘zlar: *ko‘k va qora rangli qorako‘l qo‘zilar, seleksiya, eksterer, indeks, qo‘zilar yoshi, mutloq va kunlik o‘sish.*

Abstract. *In this article, the exterior, index and live weight indicators were determined in the age dynamics of blue and black lambs obtained from the use of Afghan blue Karakol rams brought to “Bobotog Suri Farm”, and conclusions are drawn.*

Key words: *blue and black Karakol lambs, selection, exterior, index, age of lambs, absolute and daily growth.*

Kirish. Bugungi kunda Respublikamizda qorako‘l qo‘ylarni urchitish, ularning bosh sonini oshirish hamda ularning tirik vazn ko‘rsatkichlarini yaxshilash asosiy maqsadlardan biri sifatida qaraladi, shu bois ushbu talabni qondirish, qorako‘l qo‘ylaridan olinadigan talab darajasidagi, yuqori mahsuldor qo‘zilar salmog‘ini oshirish va ulardan naslchilik ishlarida foydalanish yo‘nalishdagi tadqiqotlar dolzarb hisoblanadi.

Tadqiqotning maqsadi. “Bobotog‘ suri xo‘jaligi”ga keltirilgan afg‘on ko‘k qorako‘l qo‘chqorlaridan foydalanish natijasida olingan ko‘k va qora rangli qo‘zilarining yoshi dinamikasida eksteryer, indeks hamda tirik vazn ko‘rsatkichlari aniqlashdan iborat.

Tadqiqot usulublari. Tadqiqotlar Surxondaryo viloyati, Qumqo‘rg‘on tumanining “Bobotog‘ suri” MChJ sharoitidagi mavjud janubiy O‘zbekiston zavod tipi qorako‘l qo‘zilarida bajarildi. Tajribada rang bo‘yicha geterogen Afg‘on ko‘k qo‘chqorlari genofondidan foydalanib, olingan ko‘k va qora rangli qorako‘l qo‘zilarni eksteryer o‘lchamlari hamda tana tuzilish indekslari umumiy qabul qilingan usullar asosida amalga oshirildi [1]. Ma‘lumotlarga matematik ishlov berish variatsion statistika usullarida [2] amalga oshirildi.

Tadqiqot natijalari. Shuni ta‘kidlash joizki, eksteryer ko‘rsatkichi qorako‘l qo‘ylari konstitutsiyasining asosiy ko‘rsatkichlaridan hisoblanadi. Eksteryer xususiyatlari bo‘yicha hayvonlarning sog‘-nosog‘ligi, mahsuldorlik yo‘nalishi va darajasi, ayrim tabiiy-xo‘jalik

sharoitiga moslashuvchanligi, tipining ifodalanishi to'g'risida mulohaza qilish imkoniyatini beradi. Shunga e'tiboran eksteryer ko'rsatkichlarni aniqlash muhim ahamiyatga ega. Tajribadagi qo'zilarining o'sish va rivojlanishini o'rganish uchun quyidagi eng muhim tana qismlarining chiziqli o'lchamlari o'lchanadi.

Tadqiqotlar natijasida olingan ko'k va qora rangli avlodlarning yosh dinamikasida eksteryer ko'rsatkichlarining natijalari 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval

Tajribadagi qo'zilarining eksteryer o'lchamlari, sm

Qo'zilarining eksteryer o'lchamlari, sm ($\bar{X} \pm S_x$)	Yosh davrlari	Juftlash sxemasi	
		Geterogen ♂ ko'k afg'on X ♀ qora janubiy O'zbekiston	
		Ko'k n=30	Qora n=30
Yag'rin balandligi	Tug'ilganda	38,6±0,10	38,5±0,10
	20 kunlikda	46,2±0,21	46,1±0,24
	4-4,5 oy	53,6±0,29	53,4±0,10
Gavdaning qiya uzunligi	Tug'ilganda	34,8±0,15	34,6±0,16
	20 kunlikda	39,5±0,18	39,4±0,18
	4-4,5 oy	53,8±0,30*	53,2±0,30
Ko'krak kengligi	Tug'ilganda	9,8±0,11	9,7±0,12
	20 kunlikda	15,0±0,13	14,8±0,13
	4-4,5 oy	15,5±0,14	15,3±0,13
Ko'krak chuqurligi	Tug'ilganda	14,7±0,13	14,5±0,13
	20 kunlikda	16,5±0,12	16,3±0,12
	4-4,5 oy	22,9±0,19	22,6±0,21
Ko'krak aylanasi	Tug'ilganda	40,5±0,10	40,4±0,10
	20 kunlikda	48,2±0,21	48,0±0,13
	4-4,5 oy	65,2±0,20	64,9±0,15
Kaft aylanasi	Tug'ilganda	6,0±0,07	5,8±0,05
	20 kunlikda	6,5±0,05**	6,3±0,05
	4-4,5 oy	7,5±0,07	7,3±0,09

*P<0,05., **P<0,001

Jadval ma'lumotlaridan ko'rish mumkinki, tug'ilgan vaqtdan to 4,5 oylikgacha bo'lgan vaqtda olingan ko'k va qora rangli qo'zilarining eksteryer ko'rsatkichlari bo'yicha quyidagilar yag'rin balandligi, gavdaning qiya uzunligi, ko'krak kengligi, ko'krak chuqurligi, ko'krak aylanasi va kaft aylanasi ko'rsatkichlari o'rganildi va quyidagicha farqlanishlar bilan ko'k rangli avlodlar ustunlik qildi. Yani tug'ilgandagi holat bo'yicha 0,1; 0,2; 0,1; 0,2; 0,1; va 0,2 sm ko'k ranglilarda yuqoriligi aniqlandi. Ushbu natijalar 20 kunlik hamda 4-4,5 oylik vaqtida ham o'rganildi. Natijalar esa jadvalda to'liq o'z aksini topgan. Ushbu vaqt oralig'ida eksteryer ko'rsatkichlari jadal ravishda kechishi kuzatildi. Hamda ishonchlilik darajasi o'rganilganda kaft aylanasi ko'rsatkichi 20 kunlikda 0,999 ga gavdaning qiya uzunligi ko'rsatkichi bo'yicha esa 4,5 oylikda 0,95 ga ega ekanligi tadqiqotlarda o'z aksini topdi.

Eksteryer ko'rsatkichlaridan tashqari tana tuzilish indeksleri ham muhim ko'rsatkichlardan biri hisoblanadi. Qo'ylarning konstitutsional xususiyatlari va mahsuldorlik yo'nalishini tavsiflash uchun quyidagi indeksleri hisoblandi. Shu nuqtai nazardan o'rganilgan natijalar quyidagi 2-jadvalda keltirilgan.

2-jadval

Tajribadagi qoʻzilarining tana tuzilish indeks oʻlchamlari, %

Qoʻzilarining eksteryer oʻlchamlari, sm (X±Sx)	Yosh davrlari	Juftlash sxemasi	
		Geterogen ♂ koʻk afgʻon X ♀ qora janubiy Oʻzbekiston	
		Koʻk n=30	Qora n=30
Uzunoyoqlilik	Tugʻilganda	61,8±0,24	62,2±0,24
	20 kunlikda	64,3±0,14	64,6±0,11
	4-4,5 oy	57,3±0,18	57,6±0,20
Choʻzinchoqlilik	Tugʻilganda	90,1±0,31	90,0±0,30
	20 kunlikda	85,5±0,41	85,4±0,36
	4-4,5 oy	100,3±0,03	99,7±0,43
Koʻkrakdorlik	Tugʻilganda	66,6±0,25	66,3±0,27
	20 kunlikda	90,8±0,23	90,5±0,16
	4-4,5 oy	67,6±0,20	67,5±0,11
Toʻlishganlik	Tugʻilganda	116,4±0,41	116,7±0,39
	20 kunlikda	122±0,59	122,1±0,46
	4-4,5 oy	121,2±0,30	121,9±0,55
Suyakdorlik	Tugʻilganda	15,5±0,15	15,1±0,10
	20 kunlikda	13,9±0,07	13,5±0,05
	4-4,5 oy	13,9±0,07	13,5±0,11

Jadval maʼlumotlari tahlilidan koʻrish mumkinki, tana tuzilish indekslari boʻyicha olingan koʻk va qora rangli avlodlar koʻrsatkichlari orasida quyidagicha farqlanishlar boʻlganligini koʻrishimiz mumkin. Yaʼni bunda uzunoyoqlilik, choʻzinchoqlilik, koʻkrakdorlik, toʻlishganlik hamda suyakdorlik indekslari boʻyicha quyidagicha holat kuzatildi. Tugʻilgandagi va 4-4,5 oylikdagi holat boʻyicha 0,4; 0,1; 0,3; 0,3; 0,4 hamda 0,3; 0,5; 0,1; 0,7; va 0,4% ga koʻk qoʻzilarida ustunlik qildi.

Bizga maʼlumki hayvonlarning oʻsish va rivojlanishi yaxshi boʻlishi asosan quyidagi omillarga bogʻliq, yaʼni oziqlantirish, asrash va saqlash yaʼni texnologik omillar hamda irsiy xususiyatlariga bogʻliqdir. Shunga eʼtiboran olingan avlodlarning tirik vazn boʻyicha ham oʻrganilgan natijalari quyidagi 3-jadvalga keltirilgan.

Jadval maʼlumotlari tahliliga asosan tugʻilgandan to 4,5 oylikgacha boʻlgan vaqt oraligʻida olingan koʻk va qora rangli avlodlarning oʻsish koʻrsatkichi orasida yuqori darajada farqlanishlar boʻlmaganligini koʻrishimiz mumkin. Yaʼni 0,1; 0,1 va 0,1 kg ga boʻlganligi aniqlandi. Bu esa umumiy mutloq va kunlik oʻsish koʻrsatkichida farqlanishlar boʻlmaganligidan dalolat beradi.

3-jadval

Qoʻzilarining tirik vazn koʻrsatkichlari, kg

Juftlash sxemasi	Qoʻzilar bosh soni	Oʻsish koʻrsatkichlari							
		Tugʻilganda		20 kunlikda		4-4,5 oylik		Mut-laq, kg	Kunlik oʻrtacha, gr
		(X±Sx)	C%	(X±Sx)	C%	(X±Sx)	C%		
Geterogen ♂ koʻk afgʻon X ♀ qora janubiy Oʻzbekiston	Koʻk n=30	4,3±0,05	6,9	9,0±0,07	4,4	26,1±0,17	3,57	21,8	161,4
	Qora n=30	4,2±0,05	6,5	8,9±0,09	5,6	26±0,18	3,87	21,8	161,4

Xulosalar. Bizga maʼlumki Geterogen ♂ afgʻon X ♀ qora janubiy Oʻzbekiston qoʻylarini juftlash natijasida olingan koʻk va qora rangli qoʻzilarining bir qancha koʻrsatkichlari boʻyicha

ma'lumotlar yuqoridagi jadvallarda o'z aksini topgan. Eksteryer va tana indekslari hamda o'sish ko'rsatkichlari orasida tug'ilgandan to 4-4,5 oylikgacha bo'lgan vaqt oralig'ida ko'k rangli avlodlarda qisman ustunlik qilganligi saqlanib qolindi. Shunga e'tiboran ushu holatlarni seleksiya jarayonida e'tiborga olish maqsadga muvofiq.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Кравченко Н.А. Разведение сельскохозяйственных животных. Изд-во сельхоз литературы, журналов и плакатов, 1963. 310 с.
2. Плохинский Н.А. Руководство по биометрии для зоотехников. Москва 1969.

УДК: 636 (045)

ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ ВЕРБЛЮДОВОДСТВА В КАЗАХСТАНЕ

А.М.Омбаев-член-корреспондент НАН РК,

д.с.-х.н., профессор, abdi_rahman@mail.ru

Б.Т.Кулатаев-к.с.-х.н., профессор, bnar68@mail.ru

Е.Разуан-докторант PhD, razuanergali@gmail.com

НАО «Казахский национальный аграрный исследовательский университет»

Аннотация: В статье справедливо, отмечено, что в аграрной зоне Казахстана преимущественно развивается верблюдоводство. Численность верблюдов в республике достигло до 282,8 тыс. голов. Производство верблюжьего молока и шубата в основном осуществляется на основе машинного доения верблюдиц.

Ключевые слова: верблюды, пустынная зона, поголовье, животноводство, доение, шубат.

Summary. The article rightly notes that camel breeding is mainly developing in the agricultural zone of Kazakhstan. The number of camels in the republic has reached up to 282.8 thousand heads. The production of camel milk and fur coat is mainly carried out on the basis of machine milking of camels.

Key words: camels, desert zone, livestock, animal husbandry, milking, fur coat.

Казахстан исторически является животноводческой страной. Животноводство было основой быта казахов, важнейшей стороной жизни кочевого народа. Развитию животноводства способствовало наличие обширных естественных пастбищ (187 млн. га). В республике территория пустынных и полупустынных земель составляет более 100 млн. га [1].

В Казахстане пустынные земли занимают широкую полосу от Каспийского моря до предгорий. Существуют три зоны пустынь: песчаные – Кызылкум, Мойынкум, Каракум, Таукум, Аралкум, Жанкум, Жаманкум и Приаралье; глинистые – Бетпак-Дала, Мырзашол; каменистые – Сарыарка, восток Бетпак-Далы.

Растительность и животный мир пустынь очень скудные, в основном представлены такие виды флоры-саксаул, верблюжья колючка, селин, полынь, изень, заросли кустарников, а также фауны-желтый суслик, карсак, джайран, лиса, заяц.

Полупустыни, как переходная зона между степью и пустыней, играют огромную роль в разведении сельскохозяйственных животных.

В пустынной и полупустынной зонах Казахстана получили развитие верблюдоводство, каракулеводство, курдючное овцеводство, козоводство и коневодство.

Проблема использования опустыненных земель в виду активной хозяйственной деятельности человека является актуальной проблемой в юго-западном регионе Казахстана, где преимущественно развивается продуктивное верблюдоводство. В условиях пустынь и полупустынь Казахстана затруднено развитие молочного